

**Uzoq Jo'raqulov**

*(Toshkent, O'zbekiston)*

ujurakulov@navoiy-uni.uz

## **Badiiy ijodda dekompressiya jarayoni**

### **Abstrakt**

Tadqiqotda ijod jarayonining boshqa nazariyotchi olimlar qayd etganlaridek ikki bosqichli emas, balki uch bosqichli hodisa ekani haqidagi ilmiy farazni ilgari surish va bu borada dastlabki xulosalarni taqdim etish maqsad qilingan. Qo'yilayotgan masala yangi va murakkab bo'lib, hozirga qadar tadqiq etilmagan. Shu sababdan bir kichik maqola doirasida uning barcha badiiy-estetik xususiyatlari, bajaradigan vazifalari va nazariy kanonlarini belgilab berish mumkin emas. Shuningdek, bunda ilgari suriladigan umumnazariy fikrlarning nafaqat adabiyot, balki ijodning barcha tur va shakllariga tegishli ekani, ijodiy jarayonga oid ushbu bosqich makon, zamon va shaxs tanlamasligi, adabiyot tarixining barcha davrlariga xosligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayni paytda, tadqiqot ijod jarayoniga doir ushbu bosqichning amaliy voqelanish jarayonlariga to'xtalish, qisman jahon, rus va o'zbek adabiyoti manbalari negizida fikr yuritishga qaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, bu o'rinda badiiy ijod jarayoni va uning yangi – uchinchi bosqichi haqida fikr yuritiladi. Dekompressiya jarayoni deb nomlangan ushbu bosqichga xos nazariy kriteriyalar jahon va o'zbek yozuvchilari asarlari misolida tahliliy ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy jarayon, dekompressiya jarayoni, ijod psixologiyasi, janr, xamsa, biografik metod, ijod tarixi, ijodiy individuallik, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi.

**Muallif haqida:** *Jo'raqulov Uzoq Haydarovich* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Iqtibos uchun:** Jo'raqulov, U. H. 2019. "Badiiy ijodda dekompressiya jarayoni". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 30–40.

### **Kirish**

Ijod jarayoni adabiyotshunoslikdagi o'ta murakkab va, ayni paytda, keng o'rganilgan muammolar sirasiga kiradi. Muammoning og'irligi shundaki, unga faqat adabiyotshunoslik aspektida yondashish kifoya qilmaydi. Bunda tadqiqotchi-adabiyotshunos, birinchi

navbatda, psixologiya fani yutuqlaridan xabardor bo'lishi, uni poetik yondashuv aspekti bilan sintezlashi lozim. Ikkinchidan, ijod jarayoni haqida so'z yuritayotgan adabiyotshunos badiiy matndan kelib chiqishi, tanlangan ijodkor (yoki ijodkorlar)ga oid matnni sistemali struktural tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Uchinchidan, tadqiqotchi ma'lum ijodkor biografiyasi, xususan, biografik metod yutuqlaridan voqif bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Mana shunday turli aspektlarni sintezlash orqaligina ijod jarayoni xususida muayyan ilmiy-nazariy xulosalarni ilgari surish mumkin.

Ijod jarayoni jahon, rus va qardosh xalqlar adabiyotshunoslari, estetiklari va psixologlari tomonidan o'rganib kelinadi. Adabiyot nazariyasiga doir qator darsliklar va monografiyalarda, adabiyotshunoslik, falsafa, estetika va psixologiyaga oid lug'atlarda, ilmiy tadqiqotlar to'plamlarida ijod jarayoni xususida salmoqli xulosalar ilgari surilgan. Bu o'rinda psixolog olim L.Vigotskiyning san'at va ijod psixologiyasiga doir maxsus tadqiqotlarini, B.Tomashevskiy, V. Jirmunskiy, M. Xrapchenko, P. Sakulin, G. Grifsov, B. Meylax, D. Lixachev, N. Piksanov, G. Pospelov, B. Bursov, B. Kostelyanes, Y. Aksenova, Y. Borev, V. Xalizev, A.Luk va boshqalarning tadqiqotlarini e'tirof etish kerak. Ularning ijod tarixi, ijod psixologiyasi, ijodiy individuallik xususida ilgari surgan fikr-xulosalarining adabiyotshunoslik rivoji uchun o'ziga xos ahamiyati bor.

Kuzatishlarimizga ko'ra, ijod jarayoniga doir barcha ishlarda bu murakkab fenomenga qat'iy tarzda ikki bosqichli hodisa sifatida qaraladi:

1. Badiiy asar yozilishigacha bo'lgan ijodiy tayyorgarlik jarayoni.

2. Yozish jarayoni (yozuvchining ijod laboratoriyasi).

Ularning har ikkisi ijod psixologiyasining mutlaq obyekt o'laroq talqin qilinadi. Yuqorida nomlari sanalgan tadqiqotchilarning ishlarida shu ikki bosqichda kechadigan jarayonlar *psixologik, tarixiy va nazariy* aspektlarda o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotda ijod jarayonining ikki bosqichli emas, mohiyat e'tibori bilan uch bosqichli hodisa ekani haqidagi ilmiy farazni ilgari surish va bu borada ba'zi tezislarni taqdim etish maqsad qilingan. Qo'yilayotgan masala yangi, murakkab, hali tadqiq etilmagani sababli bir kichik maqola doirasida uning barcha badiiy-estetik xususiyatlari, bajaradigan vazifalari va nazariy kanonlarini belgilab berish mumkin emas. Shuningdek, bunda ilgari suriladigan umumnazariy fikrlarning nafaqat adabiyot, balki ijodning barcha tur va shakllariga tegishli ekani, ijodiy jarayonga oid ushbu bosqich

makon, zamon va shaxs tanlamasligi, adabiyot tarixining barcha davrlariga xosligini ham alohida ta'kidlab o'tishni istar edik. Ayni paytda, maqolada ijod jarayoniga doir ushbu bosqichning amaliy voqelanish jarayonlariga to'xtalish, qisman jahon, rus va o'zbek adabiyoti manbalari negizida fikr yuritishga qaratiladi.

### **Dekompressiya jarayonining yuzaga kelishi**

Ijod jarayonida muqarrar tarzda kuzatiladigan bu bosqichni biz, shartli ravishda, dekompressiya jarayoni deb nomlashga jazm etdik. Ma'lumki, dekompressiya sof texnik hodisa bo'lib, harakatdagi texnik jarayonni ifodalaydi. Lug'aviy jihatdan havo zichligining kamayishi, yo'qolishi degan ma'noni bildiradi. Dekompressiyaga oid texnik jarayonlardan kelib chiqib biz ushbu terminni, xuddi Mixail Baxtin xronotop terminini matematika ilmidan metafora o'laroq qarzga olgani singari [Бахтин 1975, 234–235], texnika ilmlaridan metafora sifatida qabul qildik. Faqat M.Baxtinning xronotop termini matematika fanidan qisman metafora sifatida qabul qilingan bo'lsa, bizning dekompressiya jarayoni atalgan terminimizni tom ma'noda metafora deb qabul qilish lozim bo'ladi. Chunki chuqur ummonlarga sho'ng'uvchi zamonaviy akvalanglar texnologiyasiga oid bu terminni ijod jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish anchayin noa'anaviy, bir oz kutilmagan tuyulishi mumkin. Ammo qizig'i shundaki, akvalanglarga xos ushbu texnik jarayon ijod jarayonidagi sof psixologik bosqichni, ya'ni ijodiy jarayonning yangi – uchinchi bosqichini aynan metaforik tarzda aks ettiradi.

Ko'pchilikka ma'lumki, tubsiz ummon qa'riga sho'ng'iydigan akvalang ma'lum vaqt mobaynida suv ostida ish olib boradi. Ummon ostidagi javohirlar, o'simlik va hayvonot dunyosini tadqiq etadi. Bu jarayonda akvalang tabiiy kislorod bilan emas, ballonlarida zichlashtirilgan geliy kislorod qorishmasidan nafas oladi. Sho'ng'ilgan suv bosimining kattaligi shuni taqozo etadi. Suv ostidagi ishlar tugagach, akvalanglar darhol ochiq havoga chiqa olmaydilar. Suv ostidagi maxsus qurilmalarda, ishlangan vaqt hajmiga ko'ra, ikki-uch soat dekompressiya jarayonini o'taydilar, ya'ni o'z tanalarini tabiiy kisloroddan nafas olish uchun tayyor holatga keltiradilar. Agar shu jarayonni o'tamasdan turib, tabiiy kislorod sathiga ko'tarilib, nafas oladigan bo'lsalar, tabiiy havo ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi, buning natijasi o'ta halokatli bo'lishi mumkin.

Muayyan badiiy asar ustida ishlayotgan ijodkor ham xuddi akvalangga o'xshaydi. Qolaversa, Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Navoiy, Bobur singari o'zbek klassik shoirlari asarlarida borliq va undagi

voqelikni ma'ni, so'z ummoniga, ijodkorni esa shu ummon tubiga sho'ng'ib javohir olib chiquvchi g'avvosga o'xshatish an'anasi ko'p kuzatiladi. Haqiqatan ham, badiiy ijod jarayoni tamomila o'zga dunyoga safar qilish, so'z ummoni ostiga sho'ng'ishdir. Agar akvalanglar dengiz ostida geliy ballonlaridagi havo tugaguniga qadar ishlay olsalar, ijodkor o'z xayolot olamining teranligiga ko'ra, bu ummon ostida bir lahzadan tortib, ellik-oltmish yilgacha qolib ketishlari mumkin (Bu o'rinda Gyotening "Faust" asari yozilgan vaqtga taqriban mo'ljal olingan). Agar badiiy ijodga asos bo'ladigan real dunyo voqeligi va yozuvchining xayolot olamini ummonga, ijodkor tomonidan qurib bitkazilgan san'at asari namunasini ummon tubidan olib chiqilgan dur va javharga, yozuvchining o'zini esa g'avvosga o'xshashini metaforik ma'noda tan oladigan bo'lsak, u holda bu g'avvos real dunyoga qaytishi uchun albatta dekompressiya jarayonini o'tashi lozim. Ayni jarayon insoniyatga taqdim etilgan asarning badiiyat, umuminsoniy ma'rifat, insonparvarlik nuqtayi nazaridan qaysi darajani ishg'ol qilganiga qarab, har xil davom etishi mumkin. Mana shu jarayonning qanday kechgani ijodkor faoliyatining faol va sermahsul bo'lishini ham ta'minlaydi. Jarayon muvaffaqiyatli o'talmasa, ijodkor keyingi asarini yozish uchun tayyor bo'lmaydi. Uning real dunyo bilan kechadigan munosabatlariga putur yetadi. Hatto bu ijodkor va real dunyo o'rtasidagi keskin ziddiyatga olib kelishi, oqibatda ish ijodkorning dunyo hayotiga qo'l siltashigacha borib yetishi mumkin.

Albatta, akvalanglar o'tashi lozim bo'lgan dekompressiya jarayoni bilan badiiy ijoddagi dekompressiya jarayonining amalga oshuv mexanizmi tubdan farq qiladi. Akvalangning ummon ostida qancha bo'lishi, geliy balloni orqali qancha havoni yutishi va chiqarishi, dekompressiya jarayoni qay shaklda va qancha vaqt davom etishi aniq hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan bir butun ilmiy mexanizmdir. Shu bilan birga, bu mexanizm barcha akvalanglar uchun umumiy hisoblanadi. Har bir akvalang shu aniq qonuniyat bo'yicha dekompressiya jarayonini o'tashi shart. Badiiy ijoddagi dekompressiya jarayoni ham ma'lum ma'noda umumiy mexanizmga ega bo'lishi bilan birga, ijod turi, ijodkorning shaxsi, yoshi, tabiati, iste'dodi, yashab turgan muhitiga ko'ra har xil davom etadi. Aniqrog'i, har bir ijodkor ijod yo'li davomida o'ziga xos dekompressiya mexanizmini namoyon etadi. Umuman, genial rassom, shoir yoki yozuvchining ijod yo'li asardan asarga ulanib ketgan o'ziga xos bir tizim. Mana shu tizimning butunligini, turli davr, turli shakl va mazmun, turli pafoslarda ijod etilgan asarlar aro tizimli

munosabatni, qonuniy izchillikni saqlab turadigan zanjir vazifasini aynan dekompressiya jarayoni bajaradi.

Adabiyot va san'at tarixida bunga misollar juda ko'p. Xususan, so'fiy shoirimiz Ahmad Yassaviy oltmish uch yoshiga qadar ijtimoiy hayotda o'ta faol ish olib borgan, ko'plab muridlariga ega pirlmurshid sifatida Turkiston xalqlari siyosiy turmushiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo oltmish uch yoshga yetgandan keyin o'ziga yer ostidan xonaqoh qurib, qolgan umrini o'sha yerda o'tkazgan. Bu hodisaga shoirning o'zi "*Ko'ngli qattiq xaloyiqdan qochtim mano*" [Yassaviy 1991, 41], deya izoh beradi. Zotan, ma'rifat, insonparvarlik va ezgulik targ'ibotchisi bo'lgan Yassaviy shafqatsiz va yolg'onchi dunyo ishlariga shu tarzda isyon qiladi. Shu tarzda o'z ijod va ma'rifat dunyosiga o'zini o'zi dafn etadi.

### **G'arb adiblari hayotida dekompressiya**

Londondagi aristokratlar muhitidagi soxtalik, fitna va bo'htonlararo (bu o'rinda mashhur "Shekspir masalasi" va boshqa ijtimoiy-maishiy muammolar ko'zda tutilmoqda) mashhur dramalari, tragediyalari, komediyalari va sonetlarini yozishga kuch topa olgan Uilyam Shekspir toki 1612-yilga qadar murakkab ijodiy dekompressiya jarayonlarini matonat bilan o'tab keldi. Umrining so'nggi to'rt yilini esa Londondan ketib, tug'ilib o'sgan shaharchasi Stredfordda – uzlatda o'tkazdi [История, 1985, 317-331].

Mashhur Gyote o'zining "Faust" asarini butun umr yozdi. Hayoti davomida ijod etgan barcha boshqa asarlari mana shu buyuk asarini yozish uchun dekompressiya tizimi bo'lib xizmat qildi. Go'yo u hayotining uzun yo'lida kichik-kichik badiiyat parchalari (she'rlar) o'laroq kashf etgan haqiqatlarini "Faust" timsolida bir butun taqdim etdi. Gyote yosh Ekkerman bilan bo'lgan suhbatlarining birida o'z suhbatdoshini katta asar yozishda ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Katta asar ijodkorni borliqdagi real voqelik vositasida olishi mumkin bo'lgan asl syujetlardan, noyob badiiy parchalardan, ijodga xos muntazamlikdan chalg'itishi mumkin, deya ogohlantiradi. Faqat uzviylikda kashf etilgan parchalar tizimidagina yuksak badiiyat namoyon bo'lishi va saqlanib qolishi mukiinligini aytadi: "Asl inkor etib bo'lmas huquqlari bilan asldir. Shoirni ezib turgan kundalik fikr-tahayyul tashqariga chiqishni xohlaydi va shunday bo'lishi ham kerak. Agar sen katta asar yozishni xayol qilsang, uning atrofida hech narsa ko'karmaydi. U sendagi bor ijodiy quvvatni so'rib oladiki, hayotning turfa go'zalliklaridan ma'lum vaqt uzilib qolasan" [Эккерман 1981, 71].

Rus shoiri A.S.Pushkin hayotining so'nggi yillari ijtimoiy-maishiy fitnalarga, kutilmagan dramatik vaziyatlarga to'la bo'lgani hammaga ma'lum. Mana shunday tragik vaziyatlarda ham shoir ijod qilishdan to'xtamadi. O'z ijod olamida jon saqladi va yangidan-yangi asarlar yozish uchun qayta tug'ilishga o'zida kuch topa oldi. Podshoh huzurida, ballarda, mehmondorchilik va do'stlar davrasida obyektiv markazida turgan Pushkin aslida surat edi xolos. Suratdagi Pushkin boshqalar bilan suhbatlashishi, she'r o'qishi, kimlargadir dalda berishi, nimalarnidir sotib olishi, ovqatlanishi, muhabbat izhor qilishi, munozara qilishi, duelga chiqishi mumkin. Uni o'rab turgan ijtimoiy-maishiy muhit faqat mana shu Pushkini ko'radi, faqat u bilan muloqot qiladi, ungagina baho beradi: g'iybat qiladi, qarg'aydi va alqaydi. Ammo asl Pushkin bu emas. Bu uning suvrati xolos. Bu paytda asl Pushkin o'zining ijod dunyosida yashayotgan, to'g'rirog'i, keyingi buyuk asarlarini yozish uchun so'z ummoni ostida dekompressiya jarayonini o'tayotgan bo'ladi. Shoirning zamondoshi Polyakov shunday hikoya qiladi: "Onegin" ("Yevgeniy Onegin" she'riy romani ko'zda tutilmoqda – U.J.) nashr etilib, dunyo yuzini ko'rganda Pushkin shu qadar quvondiki, har kuni biror tanishini kitob do'koniga yetaklar, unga o'z kitobini ko'rsatar edi..." [Абрамович 1991, 466].

Holbuki, ayni damlarda shoirning o'lim soatlari yaqinlashib kelar, u butun jamiyat ichra olabo'jiga aylangan, yolg'izlanib qolgan va buni o'zi ham yaxshi his qilib turar edi. Shoirning 1836-yil 16-yanvarda yozilgan ushbu satrlari ochiq-oydin bunga ishora qiladi:

*Не слав его: в наш гнусный век*

*Седой Нептун Земли союзник.*

*На всех стихиях человек*

*Тиран, предатель или узник* [Абрамович 1991, 502].

Nemis yozuvchisi T.Mann muhojirlikda yashagan ikkinchi jahon urushi yillarida o'zining tug'ishganlari, do'stlari, kasbdoshlari bilan doimiy tarzda xat yozishib turgan. Bunday xatlarda yozuvchining ijodiy kayfiyati aks etgan. Binobarin, aksariyat xatlarda yozuvchi o'z asarlari, ulardagi qahramonlar, voqealarga murojaat qiladi. Asarlaridan misollar keltiradi. Yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, maishiy-psixologik holatlarni o'z asarlari kontekstida kuzatadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, yozuvchi o'ziga cheksiz iztiroblar keltirgan shunday tahlikali zamon jarohatlariga asarlaridan malham qo'yadi. Bombalar gumburi, azoblanayotgan inson ingrog'i, yig'layotgan bola nolasini o'z badiiy olamiga ko'chiradi. O'zining daxlsiz dunyosida jon saqlaydi, yangidan-yangi asarlar yozishga o'zida kuch topa oladi. Jumladan, Karl Kereni

nomiga bitilgan maktubida shunday so'zlarni o'qiyimiz: *“Что ж, плач – довольно актуальное средство выразительности, Вы не находите? Картина скверная. Мои известия из Германии и вовсе безнадежны. Вообще то я, правда, думаю, что на круг, несмотря на противоположное впечатление, человечество все таки сделало порядочный шаг вперед. К тому же оно живуче, как кошка. Даже атомная бомба не вызывает и меня серьёзного страха за него. Разве живучесть его не сказывается в нас самых? Какое это странное легкомыслие, какая это доверчивость, что мы еще творим произведения (курсив принадлежит Т.Ману)! Для кого? Для какого будущего? И все же произведение, будто даже произведение отчаяния. Всегда по сути своей оптимистично, основано на вере в жизнь – ведь с отчаянием дело обстоит особ: в нем самом есть трансценденция к надежде”* (Mazmunni to'la ifodalash maqsadida iqtibos rus tilida keltirildi) [Манн 1975, 218].

A. N. Lukning ijod psixologiyasiga doir kuzatuvlari asosida kelgan quyidagi xulosasi T. Mann fikrlari bilan hamohanglik kasb etadi: *“Результат работы художника выражает его внутреннее состояние, его видение мира”* [Лук 1978, 104].

Ammo masalaning qiyinligi shundaki, ijodkorga xos bunday chuqur psixologik holatlar, intuitiv jarayonlarni fan va mantiq tili bilan to'la izohlash mumkin emas. Bulbulning dardini gul bilganidek, insoniyat bu hodisa mohiyatiga faqat adabiyot vositasi orqali chuqurroq kira olgan. Fransuz klassisizm adabiyotining yetakchi namoyandalaridan P.Kornelning dramatik asarlaridan birida umri davomida bor-yo'g'i birra portret chizgan, hayotining qolgan qismini shu asariga termilib o'tkazgan rassom obrazi uchraydi. Garchi bu Kornel ijod etgan sof badiiy obraz bo'lsa-da, mohiyatan o'z ijod olamiga bir umr qamalib qolgan, bizningcha, bir umrlik dekompressiya jarayonini o'tayotgan ijodkor haqida xabar beradi.

S.Moemning *“Oy va chaqa”* romani qahramoni Streklend jamiyat va o'z maishiy hayotidagi hamma narsadan kutilmaganda yuz o'giradi. Qolgan umrini oila a'zolarisiz, do'stlarisiz g'ariblikda o'tkazadi. Tunni kunga ulab faqat surat chizadi. O'z suratlarini chizgani, jamiyat ichra e'tibor va mashhurlik topgani sayin u yanada tundlashib, yolg'izlanib, real hayot chegaralaridan uzoqlashib boradi. Jarayon uning so'nggi, o'zi izlayotgan suratini chizgunicha davom etadi. So'nggi suratini chizib bo'lgach, uning ijodi, ijodi bilan birga hayoti ham tugaydi. Zotan, endi uning hayot yo'llari intiho topgan, Streklend ijodidagi dekompressiya jarayonlariga nuqta qo'yilgan edi.

### **O'zbek adiblarida dekompressiya jarayonining kechishi**

Birinchi o'zbek romannavisi Abdulla Qodiriy o'zining mashhur "O'tkan kunlar" romani bosh qahramoni Kumush o'limini tasvirlayotganda o'ksib-o'ksib yig'lagan ekan [Қодирий 1983, 99-100]. Bu romanning so'nggi epizodi, ijodiy jarayonning oxiri edi. Inchinun, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"ni yozish uchun bir umr tayyorgarlik ko'rdi. U oldinroq yozgan she'r, hikoya va qissalar yozuvchini "O'tkan kunlar" tomon yuksaltirib borgan zina vazifasini bajardi. Bu yuksalish yo'li "O'tkan kunlar"ga kelib tugadi. Bevosita ijod psixologiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, Abdulla Qodiriyning o'z qahramoni Kumush o'limiga yig'lashini – ijodiy ong osti jarayonlarining voqe bo'lishi, ya'ni yozuvchining o'z ijodiy o'limiga motam tutishi, desak xato bo'lmaydi.

Dekompressiya jarayonining Alisher Navoiy ijodida kechish mexanizmi esa tamomila o'ziga xos.

Ma'lumki, Alisher Navoiy umri davomida ko'plab lirik, tarixiy, biografik, diniy, ilmiy-nazariy asarlar yozgan. Uning ijodidagi dekompressiya jarayonlari o'ta faol va uzluksiz davom etgan. Ayni jarayonlar mutafakkirning "Xamsa" asari va "Lison ut-tayr" deb nomlanuvchi so'nggi dostonida nisbatan aniqroq voqelanadi.

"Xamsa"ning har bir dostoni ikkinchisini taqozo etgan. Biri ikkinchisiga ulanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan uyg'unlashib ketgan. "Xamsa"dagi bunday murakkab konstruktsiya aynan dekompressiya jarayonlari murakkabligi va xamsa janri bir butunligini ta'minlagan. Shoirdagi doston voqealari olamidan real hayotga qaytishni istamaslik, shu virtual dunyoda yashash, bu dunyoni yanada mukammal qilish ishtiyoqi shunday ulug' asarning dunyoga kelishiga asos bo'ldi. Bizningcha, bunday ulkan va murakkab badiiy qurilmaning hosil bo'lishi bevosita Navoiyning dunyoqarashi va e'tiqodi bilan bog'liq.

Navoiy "Xamsa"si Sharq-islom muhitida dunyoga kelgan. Shuning uchun shoir ijodi va dunyoqarashi bu muhitning asosini tashkil etgan quyidagi beshlik-ustunga tayanadi. Bularning birinchisi islomning besh ustuni hisoblanib, musulmonning bir umrlik vazifalari — *imyon, namoz, ro'za, zakot, haj* deb nomlanadi. Ikkinchisi musulmon inson kundalik turmushining asosi o'lgan besh vaqt namozdir. Bu farz amallarning har biri ikkinchi amalga o'tishda ko'prik bo'ladi, biri boshqasini to'ldiradi, musulmon odamni iymonning zaiflashuvidan saqlaydi yoki iymonni yangilab turadi. Besh vaqt namozda bomdod peshinga qadar, peshin asrga qadar, asr shomga qadar, shom xuftonga qadar musulmonni chin islom,

komil iymon olamida ushlab turadi. Iymon, namoz, ro'za, zakot, haj singari besh ustun esa musulmonning umri davomida poklanishi, o'lim sari komil iymon bilan borishini ta'minlaydi. Aniqroq aytganda, bularning barchasi komil musulmon hayotidagi mustahkam tizim, o'ziga xos dekompressiya jarayoni hisoblanadi. Agar musulmon ularning birortasini tark etsa, keyingi kattaroq, davomliroq tarklar uchun zamin hozirlaydi. Dekompressiya jarayoni uzilib qoladi. Musulmonning Yaratgan bilan aloqasi uzilsa, bu ma'nau o'lim, ya'ni, fojia demakdirki, uni sira ham jismoniy o'lim fojiasi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Musulmon odamda bu jarayon tabiiy o'limga qadar serkulyativ tarzda davom etib turishi kerak. Navoiy ijodi, xususan, "Xamsa" dostonlari aro dekompressiya jarayoni, mohiyatan, mana shu tizimga asoslanadi [Jo'raqulov 2017, 20-70].

Navoiy ijodidagi dekompressiyaning so'nggi kulminatsion nuqtasi – "Lison ut-tayr" dostonidir. Bunda komil musulmonning Olloh visoliga erishuv yo'lidagi mashaqqatlari, musulmon ruhiy olami sirlari badiiy tasvir etilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) me'roj tunida, Olloh jamoliga erishganlar. Shundan so'ng bu maqom barcha komil musulmonlarning orzusiga aylangan, Navoiyning ham eng katta orzusi hisoblanadi. Navoiy ijodi dekompressiyasining kulminatsion nuqtasi, estetik idealining cho'qqisi "Lison ut-tayr" bu — ijodkorning ham so'nggi manzildir [Навоий 1996, 5-75].

### **Xulosa**

1. Jahon adabiyotshunosligi tarixida ijod jarayoni atroflicha o'rganib kelinayotgani bilan birga, uning o'ta murakkab, serqirra va yangidan-yangi xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos fenomen ekani uni doimiy o'rganib turish zaruratini ko'rsatadi.

2. Adabiyotshunoslik, psixologiya va estetikaga oid ishlarda ijod jarayoni ikki bosqichli hodisa sifatida o'rganib kelingan. Ammo badiiy voqelik ayni hodisaning, ijod fenomeni uchun muhim bo'lgan uchinchi bosqichi ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

3. Ijod jarayoniga xos uchinchi bosqichni, metaforik planda, dekompressiya jarayoni deb nomlash mumkin. Dekompressiya jarayoni mohiyatan ijodkor yo'lining samarali, mazmunli bo'lishini ta'min etadi. Shuningdek, faqat dekompressiya jarayoni vositasida-gina bir ijodkor tomonidan bunyod etilgan asarlar majmuasi bir butun, harakatdagi tizim sifatida qabul qilinishi va o'rganilishi mumkin.

4. Dekompressiya jarayoni mexanizmi har bir ijodkorda

individual tarzda kechadi. Ammo badiiy asarning ta'sirchanligi, foydasi, abadiyati, asosan, mana shu dekompressiya jarayonining qanday kechishi bilan bog'liq.

5. Atroflicha tadqiq etilgan dekompressiya jarayoni ijodkor yashagan davr, maishiy-psixologik muhit mohiyatini to'la-to'kis namoyon etuvchi oyna vazifasini o'taydi. Ko'p hollarda ijodkor dunyoqarashi, e'tiqodi, uning biografiasiga xos murakkab jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

6. Bu jarayonni tizimli o'rganishning ijodiy jarayon, ijod psixologiyasi, ijodkor shaxsiyati, badiiy asar, obraz va obrazlilik, badiiy uslub, badiiy so'z strukturasi singari sof nazariy muammolar yechimida ulkan ahamiyat kasb etishiga shubha yo'q.

### **Adabiyotlar**

- Абрамович, С. 1991. *Пушкин. Последний год. Хроника январь 1836-1837.* Москва: Советский писатель.
- Бахтин, М. 1975. *Вопросы литературы и эстетики.* Москва: Художественная литература.
- Эккерман, И. П. 1981. *Разговоры с Гете в последние годы его жизни.* Перевод с немецкого Н.Манн. Москва: Художественная литература.
- История всемирной литературы.* 1985. Том третий. Москва: Наука.
- Жўракулов, У. 2017. *Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси.* Тошкент: Турон-Иқбол.
- Лук, А. Н. 1978. *Психология творчества.* Москва: Наука.
- Навоий, Алишер. 1996. *Хамса. Лисон ут-тайр.* 12 том. Тошкент: Фан.
- Манн, Т. 1975. *Письма.* Издание подготовил С.К.Апт. Москва: Наука.
- Қодирий, Х. 1983. *Оттам ҳақида.* Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Ясавий, Аҳмад. 1991. *Ҳикматлар.* Тошкент: Адабиёт ва санъат.

**Uzak Jurakulov**

*(Tashkent, Uzbekistan)*  
ujurakulov@navoiy-uni.uz

## **Decompression Process in Literary Creation**

### **Abstract**

The research study aims to advance the scientific hypothesis that the creative process is not a two-stage but a three-stage phenomenon, as is noted by theorists. The issue is new, complex and not yet explored. For this reason, it is not possible to define all its artistic and aesthetic features,

functions and theoretical canons within a small article. It is also worth noting that the universal theories put forward are not just literature, but all types and forms of creativity. This stage of the creative process is not the choice of space, time or person, and is unique to all periods of literary history. At the same time, the study focuses on the practical process of this stage of the creative process, in part on the reflection on the sources of world literature, including Russian and Uzbek literature. In a word, it focuses on the artistic process and the new third phase. The theoretical criteria for this stage, known as the decompression process, are analyzed with examples from works by world and Uzbek writers.

**Key words:** creativity process, decompression process, genre, Hamsa, biographical method, creativity history, creativity individualism, author's, creativity laboratory.

**About the author:** *Uzak H. Jurakulov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

**For citation:** Jurakulov, U. H. 2019. "Decompression Process in Literary Creation". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 30—40.

### References

- Abramovich, S. 1991. *Pushkin. Poslednyj god. Hronika janvar' 1836-1837*. Moskva: Sovetskij pisatel'.
- Bahtin, M. 1975. *Voprosy literatury i jestetiki*. Moskva: Hudozhestvennaja literatura.
- Jekkerman, I. P. 1981. *Razgovory s Gete v poslednie gody ego zhizni*. Pervod s nemeckogo N.Mann. Moskva: Hudozhestvennaja literatura.
- Istorija vseмирnoj literatury*. 1985. Tom tretij. Moskva: Nauka.
- Juraqulov, U. 2017. *Alisher Navoiij "Hamsa" sida hronotop pojetikasi*. Toshkent: Turon-Iqbol.
- Luk, A. N. 1978. *Psixologija tvorcestva*. Moskva: Nauka.
- Navoiij, Alisher. 1996. *Hamsa. Lison ut-tajr*. 12-tom. Toshkent: Fan.
- Mann, T. 1975. *Pis'ma*. Izdanie podgotovil S. K. Apt. Moskva: Nauka.
- Qodirij, H. 1983. *Otam haqida*. Toshkent: Adabijot va san'at.
- Jassavij Ahmad. 1991. *Hikmatlar*. Toshkent: Adabijot va san'at.